

O'zbekiston · Pilla · Majburiy Mehnat

Xabarlarga qaraganda, O'zbekistonda kattalar pilla parvarishlashga majburlanadi. Pilla bu – qurtning kapalakka aylanishi oldidan o'z atrofida himoya qobig'ini yaratishidir. Pillaga ishlov berilib, undan ipak tolasini olish mumkin. Pillachilikda majburiy mehnat hollari asosan mamlakat janubidagi fermerlar orasida uchrasa-da, bu sanoatda qishloq aholisi ham majburan ishlatilishi to'g'risida dalillar bor. O'zbekiston-Germaniya forumi hisoblariga ko'ra, O'zbekistonda har yili pilla yetishtirish bilan band 45 mingdan ziyod fermerlarning aksari qismi bu ishda qatnashmaslik huquqiga ega emas; ular hukumat rasmiylari tomonidan majburlanadi. Viloyat va tuman darajasidagi mutasaddilar har bir dehqon uchun qancha pilla yetishtirish kvotasini belgilaydi. Agar kvota bajarilmasa, ular jarima bilan, ijaraga olingan yerlari tortib olinishi yoki jismoniy zo'ravonlik bilan qo'rqitiladi. Fermerlar pillani hukumat belgilagan narxda hukumatning o'ziga sotishi shart. Mazkur narx pastligi sabab pillachilik xarajatlarini qoplamasligi, to'lov ko'pincha qisman amalga oshirilishi, kechiktirilishi yoki umuman berilmasligi ham mumkin. Viloyat va tuman rasmiylari, shuningdek, mahallaga kvota joriy etadi. Mahalla, o'z navbatida, ijtimoiy to'lovlarni taqsimlash vakolatidan foydalanib, aholini pilla yetishtirishga majburlaydi. Qurt boqish muntazam e'tibor va tegishli shart-sharoit talab qilishi bois fermerlar va qishloq aholisi ko'pincha o'z uylarining bir necha xonasini ajratib, pilla yetishtirishadi va taxminan bir oy davom etadigan mavsumda kuniga 20 soatdan ko'proq ishlaydi.